

"O'zkiymyosanoat" Ajda "O'zbekiston — 2030" strategiyasi mazmun-mohiyatiga bag'ishlangan iqtisodiy o'qish tashkil etildi

// 05 March 2026 yil

<https://pda.uzkiymyosanoat.uz/oz/press/news/o-zkiymyosanoat-ajda-o-zbekiston-2030-strategiyasi-mazmun-moh>



"O'zkiymyosanoat" Ajda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan belgilangan mamlakat taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlari hamda amalga oshirilayotgan islohotlarning mazmun-mohiyatiga bag'ishlangan iqtisodiy o'qish tashkil etildi.

Mazkur tadbir O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha mo'ljallangan ustuvor yo'nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi hamda "Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish" yilida ustuvor yo'nalishlar bo'yicha islohotlar dasturlari va "O'zbekiston — 2030" strategiyasini amalga oshirish bo'yicha davlat dasturi to'g'risida"gi Farmonlari mazmun-mohiyatiga bag'ishlandi.



Tadbirida O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasi, Adliya vazirligi hamda Ekologiya milliy qo'mitasi xodimlaridan iborat ekspertlar ishtirok etib, mazkur hujjatlarning mazmun-mohiyati, ularning mamlakat iqtisodiyoti, sanoat tarmoqlari va xususan kimyo sanoati rivojiga ta'siri haqida batafsil ma'lumot berdilar.



Mutaxassislar tomonidan islohotlarning asosiy yo'nalishlari, davlat boshqaruvi samaradorligini oshirish, ekologik barqarorlikni ta'minlash, iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish hamda ishlab chiqarish sohalarida zamonaviy boshqaruv tamoyillarini joriy etish masalalari yuzasidan tushuntirishlar berildi.



Iqtisodiy o'qish davomida ishtirokchilar o'zlarini qiziqtirgan savollar bilan murojaat qilib, ekspertlardan atroflicha javoblar oldilar. Tadbir yakunida mazkur farmon va strategik hujjatlarni amaliyotga samarali tatbiq etish, kimyo sanoati korxonalarida islohotlarni yanada jadallashtirish muhimligi ta'kidlandi.



"O'zkimyosanoat" AJ tizimida bu kabi tadbirlarni muntazam ravishda tashkil etish rejalashtirilgan.